ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-144-150

TOSHKENT VILOYATIDA GASTROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY TAOMLARNING O`RNI

Baxtiyor Islomboyevich Alimov
Chirchiq davlat Pedagogika instituti
Geografiya kafedrasi magistranti

ANNOTASIYA

Maqolada Toshkent viloyatida gastroturizmni rivojlantirish va turistlarni jalb qilish shuningdek, tumanlar kesimida milliy taomlarning tayyorlanishini o`ziga xos xususiyatlarihaqida bayon qilingan.

**Kalit so`zlar:** gastroturizm, milliy taomlar, turizm, sumalak, tabiiy geografik o`rni, relyef, hudud.

THE ROLE OF NATIONAL CUISINE IN THE DEVELOPMENT OF GASTROTURISM IN TASHKENT REGION

ABSTRACT

The article describes the development of gastrotourism and attracting tourists in the Tashkent region, as well as the peculiarities of the preparation of national dishes in the districts.

Keywords: gastrotourism, national cuisine, tourism, sumalak, natural geographical location, relief, territory.

KIRISH

Bugungi kunda turizmni rivojlantirishga va uni jadal yuksaltirishga butun jahon miqyosida juda katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada yurtimizda olib borilayotgan keng ko`lamli islohotlar bilan bir qatorda turizm sohasiga qaratilayotgan e`tibor ham quvonarli albatta.

Respublikamizda turizm va uning tarmoqlarida (gastro, eko, agro, tarixiy, diniy, ekstrimal) xizmat turlarini shakillantirish, hududlarning tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ko`p tarmoqli tur firmalar sonini ko`paytirish va ularning ixtisoslashuvi hamda hududiy tarkibini takomillashtirish bo`yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-144-150

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADALOGIYASI

O` zbekiston jaannatmakon o`lka. Uning har bir hududi hushmanzara tabiati bilan kishiga o`zgacha shukuh baxsh etadi. Ana shunday betakror tabiati bilan yutimizda alohida e`tiborga sazovor bo`lgan yani “Sharq gavhari” hisoblanmish Toshkent viloyati o`zining geologic va marfologik tuzilishi, serqirra tog`lari, daryo o`zanlari hosil qilgan betakror manzarasi, tumanlar kesimida gastroturizimni rivojlanishi, shuningdek, milliy taomlarning o`ziga xos tayyorlanish jarayonlari har bir turistni e`tiborini tortmasdan iloji yo`q.

Toshkent viloyatining suv resurlaga boy tuman va shaharlarida va unga tutash hududlarda baliq taomlari va baliq go`shli taomlar turini ham kengayib borayotganini ko`rish mumkin. Viloyatdagi Chinoz tumanidagi baliq boozoriga tutash joydda baliqni turli hil usulda pishirilgan keng rastalariga ko`zimiz tushadi.

NATIJALAR

Bundan tashqari Bo`ka tumanida ham baliqni alohida usulda qovurilishini ko`rish mumkin. Bo`ka tumanida qovurilgan baliqni pamidor sousiga dimlash orqali uning mazasini oshirib unga bo`lgan qiziqish yildan yilga ortib bormoqda. Natijada ushbu hududga tashrif buyuruvchilar bafaqat osh uchun balki qovurilib dimlangan baliq istemol qilishga keluvchi turistlar sonini ortib borayotganini ko`rish mumkin (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Toshkent viloyatining tumanlar kesimida milliy taomlarni tarqalishining o`ziga xos geografik hududlari

№	Taom nomi	Tayyorlanish hududlari	Izoh
1	Osh	Toshkent viloyatining barcha tuman va shaharlarida tayyorlanadi.	Osh (palov)-yurtimizdagi eng mashxur va ma`lum bo`lgan taom hisoblanib, uning tayyorlanish usullari juda xilma hildir. Viloyatdagi barchatuman va shaharlar uchun xosdir. Asosiym arkazlaridan biri Bo`ka tumani.
2	Sumalak	Toshkent viloyatining barcha tuman va shaharlarida tayyorlanadi.	Sumalak – bahoriy taom bo`lib viloyata holisi asosan bahor faslida pishiradigan milliy taom hisoblanadi. Musulmon dunyosida Navro`z taomi ham deb yuritiladi.
3	Moshxo`rda	Toshkent viloyatining barcha tuman va shaharlarida tayyorlanadi.	Moshxo`rda- respublikamizda Toshkent viloyatiga alohida ta`rif keltiruvchi taomlardan biri bo`lib. Viloyataholisiyilbo`yisevibistemolqilis

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-144-150

			hadi. Eng ko`p istemol qiluvchi hududlar Pistent, Ohangaron, Bekobod, Oqqo`rg`on va boshqa hududlar.
4	Moshkichiri	Toshkent viloyatining barcha tuman va shaharlarida tayyorlanadi.	Moshkichiri- Toshkent viloyatining qariyb barcha tumanlaridat ayyorladi. Asosiy ajralib turuvchi belgisi bu uning ko`proq qish faslida istemol qilinishidir. Sababi ushbu taom yuqori kalloriyali yani issiqlik taomi hisoblanadi. Keng tarqalgan hududlari Piskent, Bo`ka, O`rtachirchiq, Oqqo`rg`on va boshqa tumanlar.
5	Mastova	Toshkent viloyatining barcha tuman va shaharlarida tayyorlanadi.	Mastava-guruchdan tayyorlanuvchi osh va shovladan keying o`rida turuvchi yengil suyyuq taom bo`lib. U asosan viloyatning Bo`stonliq tumanida Xojikent qishlog`ida san`at darajasida tayyorlanadi.
6	Shovla	Toshkent viloyatining barcha tuman va shaharlarida tayyorlanadi.	Shovla-guruchdan tayyorlanuvchi quyuq taom bo`lib yilning istalgan paytida istemol qilinishi mumkin bo`lgan taom. Asosan viloyatning tekslik qismida yani Bo`ka, Oqqo`rg`on, Piskent, Quyichirchiq va boshqa tumanlarida sevib istemol qilinadi.
7	Norin	Toshkent viloyatining barcha tuman va shaharlarida tayyorlanadi..	Norin – un mahsuloti hamda qaynatilgan go`shtdan tayyorlanuvchi taom bo`lib uning asosiy tayyorlanish vaqti yilning sovuq paytiga to`g`ri keladi. Ohrigi yillarda norin yangi yil taomi urfiga kirib kelmoqda.
8	Beshmarmoq	Toshkent viloyatining qriyb barcha hududlarida tayyorlanadi.	Beshbarmoq- qozoq milliy taomi bo`lib viloyatda yashovchi aholi orasida qozoq millatliylar borligi uchun ushbu taom keng tarqalgan. Asosiy tarqalish hududlari Chirchiq shahri, Yuqorichirchiq, O`rtachirchiq, Bo`stonliq, Chinoz, Qibray, Yangyo`l tumanlari hisoblanadi.
9	Xalim	Toshkent viloyatining tog`li hududlarida tayyorlanadi.	Xalim-bahoriy taom bo`lib asosan yilning bahor faslida tayorlanuvchi,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-144-150

			vitaminlarga boy go`shtli taom hisoblanida. Halim asosan viloyatning Parkent, Ohangaron va Bo`stonliq tumanlarida bahorda tayorlanadi.
10	Kabob	Toshkent viloyatining qariyb barcha hududlarida tayyorlanadi.	Kabob-viloyatning barcha hududlarida tayorlanuvchi taom. Uning asosiy farqlanuvchi jihatlari unga tanlan gango`shtida, yani kabob qoy go`shtidan, mol go`shtidan, tovuq go`shtidan va baliq go`shtlaridan tayyorlanadi asosiy tarqalgan hududlari viloyatning barcha tuman va shaharlari.
11	Kuksi	Toshkent viloyatining ayrim hududlarida tayyorlanadi.	Kuksi- Koreys milliy taomlaridan bo`lib viloyatning koreys millatiga mansub aholi yashaydigan hududlarda keng tarqalgan. Masalan Yuqorichirchiq, O`rtachirchiq, Chinoz.
12	Madorsomsa	Toshkent viloyatining Parken ttumanidagina tayyorlanadi.	Mador somsa- yilning bahor faslida mador o`simligidan tayyorlanuvchi quvvat beruvchi taom hisoblanadi. So`ngi yillarda Parkent tumanining asosiy gastranomik tashrif qog`ozi bo`lmoqda.
13	Ayron, go`ja	Toshkent viloyatining katta yo`l yoqlarida tayyorlanib kelinadi.	Ayron,go`ja- Viloyatning katta yo`l yoqalarida asosan bahor, yoz va kuz oylarida tayyorlanuvchi salqin ichimliklar. Ushbu salqin ichimliklar asosan viloyatning Bo`stonliq, Parkent, Ohangaron, Qibrayva shunga o`xshash katta yol o`tgan tumanlarida keng tayyorlanadi.
14	Baliqli taomlar	Toshkent viloyatining ayrim tumanlarida keng tayyorlanib kelmoqda.	Baliqli taomlar- baliq va undan tayyorlanuvchi taomlar tarkibi keng bo`lib, qovurilgan baliq, dudlanganbaliq, baliq sho`rva va baliqli kabob kabi turlarga bo`linadi. Qibray, Chinoz, Yangiyo`l, Bo`ka, Bekobod kabi tumanlarda turli hil usullarda tayyorlanib kelinmoqda.
15	Xasip	Toshkent viloyati barcha tuman va shaharlarida tayyorlanadi.	Xasip- bu taom viloyat xalqi orasida keng tarqalgan taomlardan bo`lib, asosan so`yilgan molning kalla

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-144-150

			oyoqlari, oshqozon va ichaklaridan tayyorlanadi. Shuningdek, juda to`yimli va quvvat bag`ishlovchi taom. Asosan viloyatning barcha tumanlarida turli hil usulda tayyorlanib istemol qilinadi.

Toshkent viloyat gastronomik turizmini shakillanishidagi milliy taomlarning turlari nomli jadvalni tahlil qilar ekanmiz, yuqorida ko`rsatilgan taomlar faqatgina belgilangan tuman va shaharlargagina hos emas balki umumiy tarqalish geografiyasi ayrim turdagi taomlarda kengayib bormoqda. Misol uchun Parkent hududida tayyorlanuvchi mador somsa bugungi kunga kelib viloyat bo`ylab keng tarqalmoqda.

MUHOKAMA

Asosiy tarqalish hududlari Parkentga qo`shni tuman va shaharlar va viloyatni boshqa viloyatlar va qo`shni respublikalar bilan bog`lovchi asosi magistral yo`l bo`ylarida keng tarqalmoqda. Buning yaqqol misolini 2021 yil bahoridan viloyatdan o`tuvchi Toshkent-Qo`qon magistral yo`l yoqalarida “Parkent mador somsasi” nomli bahoriy tamaddixonalar ko`payganidir. Buning natijasida Toshkent viloyati hududlarida gastranomik yo`nalish koridorlari ko`payib borayotganini bildiradi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda Toshkent viloyatida gastroturizimni rivojlantirish bo`yicha bir qancha chora-tadbirlar olib borilmoqda. Ayniqsa, viloyat negizidagi tumanlar kesimida milliy taomlarning keng tarzda tarqalishi va har bir hududning tabiiy geografik o`rni, iqlimi va gidrografiyasi muhim ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. Саттаров Абдисамат Умиркулович, Намозов Джурабек Абдуазизович, Раджабов Фуркат Туракулович. (2021 год). Влияние пастбищного животноводства на сельскохозяйственные угодья Самаркандской области. Annals of the Romanian Society for Cell Biology , 25 (2), 447–451. Получено с http://annalsofrscb.ro/index.php/journal/article/view/969
2. Муҳаммадисмоил Мухитдинович Маҳмудов, & Дилфуза Махмудовна Дусмуродова (2021). ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ САНОАТ ЭКОЛОГИЯСИНИНГ УМУМИЙ ТАВСИФИ. Academic research in educational sciences, 2 (4), 646-654. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00642

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-144-150

3. Фуркат Туракулович Ражабов, & Азиза Абдуллаевана Олимова (2020). ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ЕЧИМИДА ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРНИНГ АҲАМИЯТИ (ГЕОГРАФИЯ ТАЪЛИМИ МИСОЛИДА). Academic research in educational sciences, (3), 697-702.
4. Oybek Uralovich Abdimurotov (2021). "YEVROSIYO MATERIGI"NI O'QITISHDA "KEYS STADI" METODIDAN FOYDALANISH USULLARI. Academic research in educational sciences, 2 (1), 377-382. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00048
5. Akbar Orolovich Shernaev (2021). GEOGRAFIYA DARSLARIDA "GEOGRAFIK SAYOHAT USULI" DAN FOYDALANGAN HOLDA DARSLARNI TASHKIL ETISH. Academic research in educational sciences, 2 (1), 370-376. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00047
6. Sherzod Ibroim O'Gli Ibroimov, & Saida Zunnunovna Mirzarahimova (2021). GEOGRAFIK NOMLARNING YOZILISHI VA TRANSKRIPSIYASI. Academic research in educational sciences, 2 (1), 789-798. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00100
7. Lobar Vohidovna Djurayeva, & Muhammadbek Norbek Ogli Berdiqulov (2021). UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHNI YANADA RIVOJLANTRISH. Academic research in educational sciences, 2 (1), 128-132. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00017
8. Муҳаммадисмоил Мухитдинович Маҳмудов, & Сабохат Кадиркуловна Ахмедова (2021). БУХОРО ВИЛОЯТИДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА "ЖАЙРОН" ЭКОЛОГИК МАРКАЗИНИНГ АҲАМИЯТИ. Academic research in educational sciences, 2 (3), 544-553. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00436
9. Джумабаева, С. К. (2020). ГЕОГРАФИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА НОАНЪАНАВИЙ МЕТОДЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ. Academic research in educational sciences, (4), 663-671.
10. Фуркат Ражабов, Лобар Джўраева, & Асрор Махмадалиев (2020). ЎЗБЕКИСТОН ФЕРМЕР ХЎЖАЛИКЛАРИ: РИВОЖЛАНИШИ, ИХТИСОСЛАШУВИ, ГЕОГРАФИЯСИ. Academic research in educational sciences, (3), 674-686.
11. Shernaev, A. O. (2020). GEOGRAFIYA DARSLARINI O'QITISHDA ATLAS VA XARITALAR BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYALARI. Academic research in educational sciences, (4), 657-662.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-144-150

12. Шерзод Иброим Ўғли Иброимов, & Актути Араповна Туйчибекова (2021). БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИСИ ФАОЛИЯТИДА МУЛОҚОТ МАДАНИЯТИ ВА ПСИХОЛОГИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ (ТАБИИЙ ФАНЛАР МИСОЛИДА). Academic research in educational sciences, 2 (Special Issue 1), 456-471.
13. Ражабов, Ф. Т., & Абдимуротов, О. У. (2020). ТАБИИЙ ГЕОГРАФИЯ КУРСЛАРИДА АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШДА ЯНГИ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ УСЛУБИЁТИ. Academic research in educational sciences, (4), 663-671.
14. Jurayeva, L. V., & Yeshinbetova, G. A. (2020). NOZOOGEOGRAFIK VAZIYATNI YAXSHILASHNING IJTIMOIY-IQTISODIY VA EKOLOGIK MUAMMOLARNI O'RGANISH PRINSIPLARI. Academic research in educational sciences, (4), 630-638.
15. Маҳмудов Муҳаммадисмоил Муҳитдинович (2018). Андижон вилояти туристик салоҳияти ва унинг минтақа ривожланишига таъсири. Экономика и финансы (Узбекистан), (6), 21-26.